



OLIIY TA‘LIM DIZAYN TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA PEDAGOGIK AN‘ANALAR VA GLOBAL TA‘LIM PARADIGMALARINI INTEGRATSIYALASHNING «MOSLASHUVCHAN INTEGRATIV TA‘LIM DIZAYNI» (MITD) MODELI

Rahimova Dildora Qodirjonovna
p.f.f.d. (PhD), dotsent

University of Business and Science,
Pedagogika va psixologiya kafedrası
dildora_1018@gmail.uz

ORCID: 0009-0004-3249-4778

Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi
University of Business and Science,
Pedagogika va psixologiya kafedrası
4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta‘lim dizaynining global transformatsiyasi sharoitida milliy pedagogik an‘analar va zamonaviy global ta‘lim paradigmalarini uyg‘un integratsiyalash muammosi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi — mazkur integratsiyani ta‘minlovchi «Moslashuvchan integrativ ta‘lim dizayni» (MITD) modelini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Nazariy modellashtirish, tizimli-strukturaviy va qiyosiy tahlil metodlari asosida modelning maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik-jarayoniy va natijaviy-baholash bloklaridan iborat tuzilishi hamda moslashuvchanlik, integrativlik va milliy-global muvozanat tamoyillari aniqlandi

Kalit so‘zlar: pedagogik an‘analar, global ta‘lim paradigmaları, ta‘lim dizayni, integratsiya, moslashuvchan integrativ ta‘lim dizayni (MITD), oliy ta‘lim, dizayn transformatsiyasi, milliy-global muvozanat.

Аннотация. В статье рассматривается проблема гармоничной интеграции национальных педагогических традиций и современных глобальных образовательных парадигм в условиях глобальной трансформации дизайна высшего образования. Цель исследования — теоретическое обоснование модели «Гибкий интегративный дизайн образования» (ГИДО/MITD), обеспечивающей данную интеграцию. На основе методов теоретического моделирования, системно-структурного и сравнительного анализа выявлены структура модели, состоящая из целевого, методологического, содержательного, технологическо-процессуального и результативно-оценочного

блоков, а также принципы гибкости, интегративности и национально-глобального баланса.

Ключевые слова: педагогические традиции, глобальные образовательные парадигмы, дизайн образования, интеграция, гибкий интегративный дизайн образования, высшее образование, трансформация дизайна, национально-глобальный баланс.

Abstract. The article addresses the problem of the harmonious integration of national pedagogical traditions and contemporary global educational paradigms under the global transformation of higher education design. The aim of the study is the theoretical substantiation of the «Flexible Integrative Education Design» (FIED/MITD) model that ensures this integration. Using theoretical modelling, systemic-structural, and comparative analysis, the structure of the model — comprising target, methodological, content, technological-procedural, and result-assessment blocks — and the principles of flexibility, integrativeness, and national-global balance were identified.

Keywords: pedagogical traditions, global educational paradigms, educational design, integration, flexible integrative education design, higher education, design transformation, national-global balance.

KIRISH

XXI asr oliy ta’limi chuqur dizayn transformatsiyasini boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi, ta’limning globallashuvi va raqamli transformatsiya strategiyalari ta’lim jarayonini loyihalashning an’anaviy modellarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda [7; 8]. Zamonaviy tadqiqotlar ta’limdagi paradigmalar siljishlarni tobora ekologik va tizimli hodisa sifatida talqin qilmoqda [11]. Ushbu jarayon jiddiy pedagogik ziddiyatni yuzaga keltiradi: bir tomondan global ta’lim paradigmalarini o‘zlashtirish zarurati, ikkinchi tomondan milliy pedagogik an’analar va madaniy-ma’naviy o‘zlikni saqlab qolish ehtiyoji.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar bu vazifani strategik darajaga ko‘targan. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi [1] hamda pedagogik ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlar [2] xalqaro tajribani milliy zaminga moslab joriy etish va ta’lim sifatini oshirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Bu esa an’ana va innovatsiyani uyg‘unlashtiruvchi ilmiy asoslangan dizayn modellarini ishlab chiqishni dolzarb qilib qo‘yadi.

«Ta’lim dizayni» tushunchasi ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimini yaxlit va oldindan asoslangan tarzda loyihalash faoliyatini anglatadi. «Dizayn transformatsiyasi» esa loyihalash paradigmasining tub o‘zgarishini — o‘qituvchi markazli, bilim uzatishga yo‘naltirilgan modeldan talaba markazli, kompetensiya va natijaga yo‘naltirilgan hamda raqamli muhitda amal qiluvchi moslashuvchan modelga o‘tishni bildiradi. Aynan shu o‘tish sharoitida milliy pedagogik merosning o‘rni va vazifasini

qayta belgilash hamda uni global paradigmalar bilan uyg‘unlashtirish ilmiy muammosi keskinlashadi.

Mavzuga oid zamonaviy tadqiqotlar bir necha yo‘nalishda rivojlanmoqda. Ta’lim dizayni (pedagogik dizayn) masalalari milliy pedagogikada A.E.Ibraimov ishlarida yoritilgan [3]; ta’lim modellarini integratsiyalash A.A.Faxrutdinovanning aralash ta’lim bo‘yicha tadqiqotida [4] va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning integratsion texnologiyalari yuzasidan olib borilgan izlanishlarda [5] tahlil qilingan. Xalqaro miqyosda integrativ ta’lim va uni innovatsion salohiyat bilan bog‘lash [10], kompetensiyaviy yondashuv doirasida integral ta’lim natijalarini loyihalash [9] hamda oliy ta’limda dizayn tafakkuri [6] faol o‘rganilmoqda. Biroq o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda milliy pedagogik an‘analar va global paradigmalarini yaxlit, moslashuvchan tizim sifatida birlashtiruvchi konseptual dizayn modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan. Aynan shu ilmiy bo‘shliq mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, milliy pedagogik an‘analar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar merosida shakllangan boy metodologik zaminga ega bo‘lib, ilm va axloq uyg‘unligi, ustoz-shogird munosabatlari hamda komil inson tarbiyasi g‘oyalarini o‘z ichiga oladi. Global paradigmalar bilan integratsiya jarayonida ana shu an‘analarni zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan qayta talqin etish va ularni ta’lim dizaynining tarkibiy elementiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — oliy ta’lim dizayn transformatsiyasi sharoitida pedagogik an‘analar va global ta’lim paradigmalarini integratsiyalashni ta’minlovchi «Moslashuvchan integrativ ta’lim dizayni» (MITD) modelini nazariy jihatdan asoslash va uning tarkibiy tuzilishini ochib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot tizimli, integrativ, dizayn asosidagi (design-based) va qiyosiy-pedagogik yondashuvlar majmuiga tayanadi. Asosiy metod sifatida nazariy modellashtirish qo‘llanilib, uning yordamida MITD modelining tarkibiy-funksional tuzilishi ishlab chiqildi. Tizimli-strukturaviy tahlil model bloklari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, qiyosiy tahlil esa milliy an‘analar va global paradigmalarining o‘zaro to‘ldiruvchi jihatlarini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqot materiali sifatida 2020-2024-yillarda chop etilgan ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari hamda mumtoz pedagogik meros tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida yaxlitlik, tarixiylik hamda an‘ana va innovatsiya dialektik birligi tamoyillari qo‘llanildi.

Qiyosiy tahlil jarayonida milliy an‘analar va global paradigmalar bir necha mezon — maqsad, mazmun, metod va qadriyat yo‘nalishi bo‘yicha o‘zaro solishtirildi. Bu ularning bir-birini istisno etmaydigan, aksincha to‘ldiradigan jihatlarini aniqlashga imkon berdi va MITD modelining integrativ mantig‘iga metodologik asos bo‘ldi.

NATIJALAR

«Moslashuvchan integrativ ta’lim dizayni» (MITD) — oliy ta’lim jarayonini milliy pedagogik an‘analar va global ta’lim paradigmalarining uyg‘un birligida, o‘zgaruvchan

sharoitlarga moslashish qobiliyatini saqlagan holda loyihalashning konseptual modelidir. Model an‘ana va innovatsiyani qarama-qarshi qo‘yishdan emas, balki ularni o‘zaro boyituvchi manba sifatida birlashtirishdan kelib chiqadi. Tadqiqot natijasida modelning o‘zaro bog‘langan besh blokdan iborat tuzilishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

MITD modelining tarkibiy bloklari

Blok	Mohiyati	Asosiy vazifasi
Maqsadli	Milliy va global talablardan kelib chiquvchi maqsad va vazifalar	Integratsiya yo‘nalishi va kutilayotgan natijalarni belgilash
Metodologik	Tizimli, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar, pedagogik tamoyillar	Loyihalashning ilmiy-nazariy asosini ta‘minlash
Mazmuniy	An‘anaviy va global manbalarni uyg‘unlashtiruvchi integratsiyalashgan ta‘lim mazmuni	O‘quv dasturlari va modullarni tanlash va tuzish
Texnologik-jarayoniy	Metod, vosita, shakl va raqamli texnologiyalar tizimi	Integratsiyani amaliy jarayonga aylantirish
Natijaviy-baholash	Mezon, ko‘rsatkich va diagnostik vositalar	Samaradorlikni o‘lchash va qayta aloqani ta‘minlash

Model bloklari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, natijaviy-baholash blokidan olingan ma‘lumotlar qayta aloqa mexanizmi orqali maqsadli va mazmuniy bloklarni tuzatishga xizmat qiladi. Aynan shu qayta aloqa halqasi modelning moslashuvchanligini ta‘minlaydi — tizim tashqi sharoitlar o‘zgarganda o‘z tuzilishini qayta sozlash qobiliyatini saqlaydi.

Modelning amal qilish mantig‘i quyidagicha: maqsadli blok ijtimoiy buyurtma va me‘yoriy talablar asosida integratsiya yo‘nalishini belgilaydi; metodologik blok uni ilmiy yondashuvlar bilan asoslaydi; mazmuniy hamda texnologik-jarayoniy bloklar loyihani real ta‘lim jarayoniga aylantiradi; natijaviy-baholash bloki esa erishilgan natijalarni o‘lchab, qayta aloqa orqali tizimni takomillashtiradi. Shu tariqa MITD modeli yopiq va o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi tsikl sifatida amal qiladi, bu esa uni statik chizmalardan farqli o‘laroq jonli va boshqariladigan tizimga aylantiradi.

MITD modelida integratsiya uch darajada amalga oshiriladi: maqsadli-qadriyatli darajada (milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi), mazmuniy darajada (an‘anaviy va zamonaviy bilimlarning o‘zaro boyitilishi) hamda texnologik darajada (an‘anaviy pedagogik usullar va raqamli vositalarning muvofiqlashtirilishi). Bunday ko‘p darajali integratsiya modelning yaxlitligini va uni turli ta‘lim kontekstlariga ko‘chirish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Model uchta yetakchi tamoyilga asoslanadi. Moslashuvchanlik tamoyili ta‘lim dizaynining o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy va texnologik muhitga dinamik moslashishini nazarda tutadi. Integrativlik tamoyili an‘anaviy va global komponentlarning mexanik

yig‘indisi emas, balki sifat jihatidan yangi yaxlitlikka birlashishini ifodalaydi. Milliy-global muvozanat tamoyili esa global paradigmalarni o‘zlashtirishda milliy o‘zlik va ma‘naviy qadriyatlarning ustuvorligini saqlashni kafolatlaydi.

Ushbu uch tamoyil o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi: moslashuvchanlik tizimning dinamikligini, integrativlik uning yaxlitligini, milliy-global muvozanat esa qadriyat yo‘naltirilganligini ta‘minlaydi. Ularning birgalikdagi ta‘siri modelni nafaqat nazariy jihatdan izchil, balki turli ta‘lim sharoitlarida amaliy hayotiy qiladi. Natijada MITD modeli oliy ta‘lim dizaynini loyihalashning yagona metodologik negizini shakllantiradi.

Modelning ilmiy yangiligi uning integratsiyani ikki qutbli (an‘ana yoxud innovatsiya) tanlov emas, balki qayta aloqaga asoslangan uzluksiz sintez sifatida talqin etishida, shuningdek milliy-global muvozanatni alohida dizayn tamoyili darajasiga ko‘tarishida namoyon bo‘ladi. Bu jihat modelni mavjud ta‘lim loyihalash yondashuvlaridan ajratib turadi va uning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar zamonaviy ilmiy izlanishlar bilan mazmunan hamohang. Integral ta‘lim natijalarini loyihalash [9] va integrativ ta‘limni innovatsion salohiyat bilan bog‘lash [10] bo‘yicha tadqiqotlar integratsiyaning ahamiyatini tasdiqlaydi, biroq ular asosan kompetensiya va natija jihatlariga qaratilgan. MITD modelining ulardan farqi shundaki, u integratsiyani statik holat emas, balki qayta aloqaga asoslangan, boshqariladigan va moslashuvchan jarayon sifatida talqin etadi hamda milliy-global muvozanat tamoyilini markaziy o‘ringa qo‘yadi. An‘anaviy modellar ko‘pincha yo mahalliy an‘analarni mutlaqlashtirish, yo global standartlarni tanqidiy o‘zlashtirmasdan ko‘chirish yo‘lidan borgan bo‘lsa, MITD modeli ikkala manbani ham tanqidiy-ijodiy sintez qilishga yo‘naltirilgan.

Raqamli transformatsiya bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar [7; 8] oliy ta‘limning tuzilmaviy o‘zgarishlarini va ta‘lim strategiyalarini raqamli muhitga moslashtirish zaruratini asoslaydi. MITD modeli bu jarayonni faqat texnologik yangilanish bilan cheklamay, uni milliy pedagogik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishni taklif etadi. Bunday yondashuv ta‘limdagi paradigmal siljishni ekologik va tizimli hodisa sifatida talqin qiluvchi zamonaviy qarashlarga [11] mos keladi va integratsiyani chuqurroq, qadriyatga asoslangan darajada amalga oshirishga imkon beradi.

Milliy tadqiqotlar konteksti nuqtai nazaridan MITD modeli pedagogik dizayn [3] va ta‘lim modellarini integratsiyalash [4; 5] bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijalarini umumlashtiradi hamda ularni yagona konseptual asosga birlashtiradi. Shu tariqa model xususiy metodik yechimlardan yaxlit metodologik darajaga o‘tishni ta‘minlaydi, bu esa uning milliy pedagogika fani rivojiga qo‘shadigan nazariy hissasini belgilaydi.

Modelning amaliy salohiyati uning oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv dasturlarini loyihalash, modullarni ishlab chiqish va ta‘lim sifatini baholashda metodik asos bo‘lib xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, uni amaliyotga joriy etish professor-o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini, institutsional qo‘llab-quvvatlashni va raqamli

infratuzilmani talab qiladi. Modelning empirik samaradorligini keng ko‘lamli tajriba-sinov asosida tekshirish tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, oliy ta‘lim dizayn transformatsiyasi sharoitida milliy pedagogik an‘analar va global ta‘lim paradigmalarini integratsiyalash zamonaviy pedagogikaning dolzarb metodologik muammosi bo‘lib, uni hal etish yaxlit konseptual modelni talab qiladi. Ikkinchidan, ishlab chiqilgan «Moslashuvchan integrativ ta‘lim dizayni» (MITD) modeli maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik-jarayoniy va natijaviy-baholash bloklaridan iborat yaxlit tizim sifatida an‘ana va innovatsiya o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga xizmat qiladi. Uchinchidan, modelning moslashuvchanlik, integrativlik va milliy-global muvozanat tamoyillari uning turli ijtimoiy-madaniy va texnologik sharoitlarga moslashuvchanligini ta‘minlaydi. Modelning ilmiy-amaliy salohiyati oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv dasturlarini loyihalash va ta‘lim sifatini baholashda namoyon bo‘lib, uning empirik samaradorligini tajriba-sinov asosida tekshirish tadqiqotning keyingi bosqichi vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. — Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son «Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va soha o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori. — Toshkent, 2022.
3. Ibraimov A.E. Masofaviy malaka oshirishning pedagogik dizayni. — Toshkent: Lesson press, 2020. — 39 b.
4. Faxrutdinova A.A. O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitishda «Teskari sinf» aralash ta‘lim modelining integratsiyasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. — Chirchiq, 2023. — 28 b.
5. Berdikulova N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning innovatsion va integratsion texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. — Samarqand, 2023.
6. McLaughlin J.E., Chen E., Lake D. et al. Design thinking teaching and learning in higher education: Experiences across four universities // PLoS ONE. — 2022. — Vol. 17, No. 3. — e0265902.
7. Hashim M.A.M., Tlemsani I., Matthews R. Higher education strategy in digital transformation // Education and Information Technologies. — 2022. — Vol. 27. — P. 3171-3195.
8. Garcez A., Silva R., Franco M. Digital transformation shaping structural pillars for academic entrepreneurship: a framework proposal and research agenda // Education and Information Technologies. — 2021. — Vol. 27. — P. 1159-1182.

- 9.** Vitchenko A., Vitchenko A., Zamotaieva N., Khrystiuk S., Nikolayenko V. Designing Integral Learning Outcomes in Higher Education Within the Frameworks of the Competency-Based Approach//Journal of Higher Education Theory and Practice. — 2022. — Vol. 22, No. 6.
- 10.** Selznick B.S., Dahl L.S., Youngerman E., Mayhew M.J. Equitably Linking Integrative Learning and Students' Innovation Capacities // Innovative Higher Education. — 2022. — Vol. 47, No. 1. — P. 1-21.
- 11.** Zhao Y., Zhong R. Paradigm Shifts in Education: An Ecological Analysis// ECNU Review of Education. — 2025. DOI: 10.1177/20965311241296162.